

SARLAVHALARNI TARJIMA QILISH USULLARI (INGLIZ VA O'ZBEK
MATBUOTI MATERALLARIDA)**Raximova Gulrux Faxritdinovna***Buxoro Davlat Universiteti Xorijiy tillar fakulteti**Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik yonalishi**I kurs magistranti**Ilmiy rahbar: Xodjayeva Dilafroz Izzatullayevna*

Annotatsiya: *Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida barcha tur va janrlar qatori badiiy tarjima amaliyotida ham o'sish-o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, asliyat tilidan tarjima izga tushayotgani quvonarli hol. Bu borada yoshlarning o'z iqtidorini sinovdan o'tkazayotgani, Sharq va G'arb xalqlari adabiyoti namunalarini bevosita ona tilimizga o'girishga dadil kirishayotgani katta umid uyg'otadi.*

Kalit so'zlar: *Lingvistika, ona tili, ingliz tili, sarlavhalar, tarjima, tarjimon, maqola.*

O'zbek tili matbuoti sarlavhalarini tarjimasini tilining bir qator xususiyatlari, gazeta janrlarining tili va uslubi kabi masalalar o'rganilgan bo'lsa-da, dolzarb muammolar mavjud. Ana shunday dolzarb masalalardan biri gazeta sarlavhalarining til xususiyatlari va matn bilan uyg'unligi muammosining hozirgi davr gazetalari misolida o'rganilishidir.

Ayni paytda o'zbek adabiyoti matbuotidagi sarlavhalarini xorijiy tillarga tarjima qilish bobida ham yoshlar yaxshigina tashabbus ko'rsatmoqda. Bu sohadagi ishlarning izchil tus olganini O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Badiiy tarjima va xalqaro aloqalar bo'limining respublikamizdagi yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida poytaxt va viloyatlardagi oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda "Yosh tarjimonlar maktabi"ni tashkil etgani, yosh tarjimonlarning ilk tarjima asarlari "Adib" nashriyotida chop etilayotgani, "Jahon adabiyoti" jurnalining muntazam chiqib turgani va amalga oshirilgan boshqa ko'plab tadbirlar misolida ko'rish mumkin. Zero, o'zbek adabiyoti namunalarini chet tillariga, jahon adabiyoti sara asarlarini ona tilimizga munosib tarzda tarjima qilib taqdim etishdek sharafli vazifa bugungi navqiron avlodning iqtidori, g'ayrat-shijoatiga bog'liqligi sir emas.

Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar, "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch", "Adabiyotga e'tibor — ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" kitoblarida aytilgan fikr-mulohazalar, tavsiyalardan kelib chiqsak, bugungi adabiy jarayonda badiiy tarjimaning o'rni, tarjimashunoslik, tarjima tanqidi sohalaridagi yutuq va kamchiliklarni tahlil, talqin etish, muayyan xulosalar chiqarib olish kun tartibidagi muhim vazifalar sirasidan ekaniga iqror bo'lamiz.

Shu ma'noda tahririyatimiz tarjimashunoslikning dolzarb mavzulari bo'yicha ijodkor va olimlar ishtirokida davra suhbatini tashkil etdi. Ushbu suhbat "Tarjima nazariyasi va tanqidi muammolari" mavzusiga bag'ishlandi. Unda taniqli tarjimon va tarjimashunos olimlar, tadqiqotchilar Muhammadjon Xolbekov, Ibrohim G'afurov, Abduzohir Abduazizov, Gulnoza Odilova, Gulchehra Rixsievna, Xayrulla Hamidov ishtirok etib, mavzuga doir fikr-mulohazalarini, taklif va istaklarini bayon etdilar.

XX asrga qadar “tarjima” soʻzi faqat tarixiy, falsafiy, adabiy va badiiy asarlar oʻgirmasiga nisbatan qoʻllanib kelingan. Ogʻzaki tarjimonga nisbatan esa turkiy xalqlarda “tilmoch”, nemis tilida “dolmetechen”, ingliz va frantsuz tillarida “interpret” atamaları qoʻllanilgan. Tarjima nazariyasi xususida aytilgan fikrlar ham shu yoʻsinda umumiy maʼno kasb etgan.

Tarjima nazariyasiga bagʻishlangan ilk tadqiqotlar oʻtgan asrning 20-30 yillarida yuzaga kela boshladi. Bu davrda nashr qilingan Amos, Postget, Finkel, Alekseev kitoblarida va Sanjar Siddiqning “Adabiyot tarjimasi sanʼati” (1936) risolasida tarjima nazariyasi fan sifatida eʼtirof etilgan tezislarni uchratamiz. 50-yillarda taniqli tarjimon Ivan Kashkin va tilshunos Reformatskiyning tarjima nazariyasi xususidagi maqolalari eʼlon qilingandan soʻng bu sohada bahs-munozaralar boshlanib ketdi. Professor Reformatskiy “tarjima amaliyoti barcha fanlar uchun xizmat qilsa-da, tarjima nazariyasi mustaqil fan boʻla olmaydi, balki tilshunoslikning bir boʻlimigina boʻlishi mumkin”, degan gʻoyani ilgari surgan edi. Shundan soʻng ularni maʼqullagan va tanqid qilgan qator tadqiqotlar, maqolalar chop etildi. 1953 yil Xalqaro tarjimonlar uyushmasi (FIT) tashkil topdi. 1955 yildan uning organi “Bobil” (Babel) jurnali nashr etila boshladi.

Sarlavha qoʻllashda har bir ijodkorning oʻziga xosligi uning badiiy mahorati bilan ham belgilanadi. Bu sohada Abdulla Qahhor va Gʻafur Gʻulom mahorati oʻziga xos maktab hisoblanadi. Bu sohada koʻplab tadqiqotchilarning xulosalari mavjud. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ishlatilgan sarlavhalarning dastlabki tahlili shuni koʻrsatadiki, yozuvchi asosan sarlavha sifatida mazmunli va ixcham til birligi – soʻzni tanlab, uning emotsional-ekspressiv maʼnosi, stilistik imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan, soʻz birikmasi sarlavha sifatida oz uchrasa-da, ular sifatlovchi-sifatlanmish va qaratqich-qaralmish kabi stilistik maʼnosi kuchli birikmalardan tanlangan. Gap - sarlavhalar juda oz, ammo ular ham nihoyatda ixcham, sodda gaplardan tanlangan va matn bilan uygʻunlashtirilgan. Hikoya janriga xos oʻziga xoslik qisqa syujetlilik, soddalik, keng mazmunlilik boʻlsa, asar va uning sarlavhasiga qoʻyiladigan asosiy talab ham qisqalik, ixchamlikdir. Shukur Xolmirzayev sarlavha talablarini hisobga olgan holda, matn mazmuniga mos, emosional-ekspressivligi kuchli, ixcham til birliklarini tanlagan. Yozuvchi ijodiga xos soddalik va hayotiylik sarlavhada ham munosib aks etgan.

1. КАРИМОВ И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997, 328-б.
2. КАРИМОВ И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
3. АБДУЛЛАЕВ А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. - 88 б.
4. Olimova, D. Z. (2021). Transfer of modality in translation (modal verbs and their equivalents, modal words). Middle European Scientific Bulletin, 12, 220-22.
5. Olimova Dilfuza Zokirovna. (2022). The specifics of translation actions in simultaneous interpreting. Middle European Scientific Bulletin, 22, 292-295.
6. Laylo Khaydarova, & Norova Sarvinoz. (2022). Translation in Fashion and the art of dressing. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(02), 64-66. Retrieved from <https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/219>

7. Laylo Xaydarova INGLIZ TILI FANIDAN O'QUVCHILARNING BILIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA VA BO'SH VAQTLARINI MAZMUNLI O'TKAZISHDA "VIRTUAL CULTURAL EXCHANGE PROGRAMME" XALQARO LOYIHASINING AHAMIYATI // Scientific progress. 2022. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tili-fanidan-o-quvchilarning-bilim-samaradorligini-oshirishda-va-bo-sh-vaqtlarini-mazmunli-o-tkazishda-virtual-cultura>